
“SUVBOSHI” MAHALLASIDA 300 DAN ZIYOD OILANING ELEKTR TA’MINOTI YAXSHILANMOQDA

Toshloq tumanidagi qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, xususan, joylarda ichki yo‘llar, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta’minotini yaxshilash, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 408-sonli qarori aholini hayot tarzini o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Tumanidagi “Suvboshi” MFY aholisini uzoq yillardan buyon elektr ta’minotidagi nosozliklar qiynab kelayotgan edi. Hududda Prezidentimizning 408-qaroriga ko‘ra, amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari natijasida 300 ta xonadonning elektr ta’minoti yaxshilandi.

Ayni kunlarda elektr energiyasi ta’minotini yaxshilash maqsadida 250 kVA bo‘lgan 2 ta yangi transformator o‘rnatilib, 3 km uzunlikdagi elektr uzatish tarmog‘i tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

2023-06-08 13:26:35